

ISH O‘YINLARI HAMDA VAZIYATLAR USULINING AMALIY MASHG‘ULOTLARDAGI AHAMIYATI

Sharipova Saida Nigmatdjanovna

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti
Anatomiya va Fiziologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Ta’lim tizimi tuzilishidagi keng qamrovli islohotlarni o‘qituvchilar ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va o‘quv jarayonida qo‘llash bilan mustahkamlaydi. Buning uchun pedagoglar o‘quv jarayoniga texnologik yondashuvni o‘rganganib, qo‘llagan holda yondashishlari talab etiladi. Ilg‘or texnologiyalarning keng rivojlanishi bilan so‘nggi yillarda tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ta’limni optimallashtirish uchun yangi pedagogik klinik ish o‘yin texnologiyalari ham samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

Kalit so‘zlar. Pedagogik texnologiyalar, klinik ish o‘yinlari, vaziyatlar usuli

Ish o‘yinlari talabalar tomonidan real hayotiy vaziyatlarni o‘quv xonasida modellashtirish va rollarni ijro etish orqali ma’lum nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan usuldir. Ushbu shakl muayyan ob’ektning murakkab vaziyatlarini - simulyatsiyalarini modellashtirish orqali talabalarning bilimlarini eng samarali ko‘nikmalarga aylantirishga yordam beradi. Dinamikada ob’ektning o‘zi (bemor) bilan emas, balki uning simulyatsiya modeli bilan turli xil vaziyatlarni ijro etish mumkin bo‘ladi. Bunday ko‘nikmalar o‘quv faoliyati jarayonida rivojlantiriladi, shu orqali ta’lim jarayonini faollashtirish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Klinik ish o‘yinlarining asosiy maqsadi- egallanayotgan kasb bo‘yicha amaliy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdan iborat hamda kasbiy holatlarda aniq va tez yondoshish, to‘g‘ri qaror qabul qilishni shakllantiradi, bo‘lg‘usi mutaxassisning faoliyatida real xatoliklarning oldini oladi, bilim va ko‘nikmalarni aniqlab, to‘g‘rilaydi.

Ish o‘yinlarining asosiy qoidasi – bu ma’lum holat bo‘yicha ssenariyni tuzishdir. Ssenariy rejasi – bu voqealikning mantiqan majmuasini aks ettiradi, voqealar ketma – ketligini bayon etadi. Ssenariy rejasining afzalligini "qat’iylik" va stereotipik fikrlashni zaiflashtirishning eng samarali vositalaridan biri, deb hisoblash mumkin. Bu usul talaba bilimi va ko‘nikmasini real murakkab vaziyatlarga yo‘naltirishda g‘oyat samarali hisoblanadi.

O‘yin bosqichlari: I. Tayyorgarlik bosqichi:

1. Kurs va mavzuni aniqlash. Klinik ish o‘yinlarini yuqori kurslarda va magistratura yo‘nalishida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bunda asosan shoshilinch holatlarni yoki kam uchraydigan kasaalliklarni o‘zida aks ettirgan holatlarni tanlagan yaxshiroq hisoblanadi.

2. O‘yinning maqsadini aniqlash: O‘yin davomida qanday bilim va ko‘nikmani namoyish etishni shakllantirish.

3. Ish o'yining markazida ssenariy rejasini tuzish tashkil etadi:

a) kasbiy faoliyatda vaziyatli holatni (real, dolzarb) tanlash;

b) rollarni aniqlash va ularni mutaxassislik va mansabiga qarab alohida kartochkalarda qayd qilish;

v) harakat joyini (bemor xonadoni, tez yordam mashinasi, qabul bo'limi va boshqalarni aniqlash;

g) real tibbiy hujjatlarni (tahlillar, rentgenogramma va EKG to'plami) tayyorlash, o'yinni fanton, mulyaj jadvallar va boshqalar bilan ta'minlash.

4. Parallel o'rganilayotgan fanlarni o'rganish va bazis bo'limlarni takrorlash .

Talabalarga takrorlash uchun adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

II. O'yinning borishi. Boshlovchi – o'qituvchi o'yinni ma'lum holatdan boshlab, talabalarni rollar bo'yicha taqsimlaydi. Bunday hollarda o'yin turli holatlarda ishtirokchining o'zi va hamrohining harakatlarini baholash imqoniyatini beradi. Klinik ish o'yini deontologik prinsiplarga asoslangan muloqot qobiliyatlarini amalda qo'llash uchun "sinov maydonchasi" ga o'xshaydi. Turli rollarning bajarilishiga qarab, axloqiy sifatlarning namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllari rolning o'zaro ta'siri talablariga muvofiq o'rnatiladi.

III. O'yinni tahlil qilish: Talabalalarning "ekspert" guruhi – qadamma-qadam o'yinning borishini tahlil qilib, kamchiliklarni o'ziga qayd qiladi: barcha o'yin ishtirokchilarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harakatlarini tahlil qilishadi. Har bir talaba bu haqda o'zining nuqtai nazarini bayon qiladi. Ekspert guruhi tahlilni bir necha bosqichlar bo'yicha baholaydi:

- axborot yig'ish – anamnez;

- vrach – bemor o'zaro harakati;

- patsientni har tomonlama ko'rikdan o'tkazish;

- patsientni (menedjiment) olib borish.

Har bir bemor bir talay muammolar bilan keladi. Vrach bilan bemor o'rtasidagi o'zaro aloqa va uzaro munosabatlar e'tiborga olinadigan bo'lsa, ushbu axborot hajmini rasman cheklashga, uni «o'rab- ixchamlashga» harakat kilish, odatda shunday vaziyatga olib keladiki, bunda muammo mohiyati boshqacha ma'no oladi, qabul kilinadigan yechimlar esa, samarasiz buladi. Shu munosabat bilan bemorlardagi real vaziyatlarga taalluqli muammolarni xal kilish vositasi bilan qitish nihoyat darajada samaralidir. Talabalarning oldingi tajribasini va ular kelgusida duch kelishadigan potensial muammolarni mashg'ulotlarda muhokama kilish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Vaziyatlarda bir talay variantlar bo'lishi mumkinligi, ularning qatnashchilari to'g'risida tula axborot yo'qligi talabalarni ko'pincha xijolat qiladi. Biroq vaziyatlar - bu real dunyoning son-sanoqsiz turli variantlarda bo'ladigan jonli kesmasidir. Biz, tahlil qilar ekanmiz, tuliq bo'lmagan axborot bilan ishlaymiz, shu axborot asosida to'g'ri javob olish uchun bir xulosaga kelib, umumlashtirish ishi o'tkaziladi. Hayotda, ishda juda ham aniq xulosaga kelish uchun zarur tula axborot bo'lmagani holda ko'proq yoki kamroq bir talay muhim karorlar qabul qilinadi. Nihoyatda anik xulosa chiqarish o'rniga biz asoslangan taxminlar qilamiz, manfaatlarni toroziga solib ko'ramiz, fikrimizcha eng yaxshi natijalarga olib kelishi kerak bo'lgan o'z qarorlarimizga umid qilamiz. Vaziyatlar bizga xudqi ana shunday kilitini taklif etadi.

Vaziyat - bu odatda (lekin xamisha ham emas) haqiqiy voqeadir, u fikrni gavdalantirib muammoni namoyon qiladi, tanlashga ikkita imkoniyatni taklif etadi va Sizni nima qilsam ekan, degan xayol bilan yolg'iz qoldiradi. Ba'zi vaziyatlar qaror kabul qilishdan oldin bo'lib o'tgan hamma voqealarni tasvirlab beradi va qaysi yo'ldan borish kerakligini hal etib, kabul kilingan ushbu qarorning qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasvirlab berishni Sizdan so'raydi. Boshqa vaziyatlar ko'rilgan choralar tug'risida xabar beradi va kanday xatolarga yo'l ko'yilgani, nimalarni yaxshirok uddalash mumkin bo'lganini aniqlab berishni Sizdan iltimos qiladi.

Vaziyatlar hamisha qisqa shaklda bayon etilgan bo'ladi. Vaziyatning birinchi xomaki nusxasi ko'pchilik hollarda uning uzil-kesil variantidan kura ancha uzun buladi. Vaziyatlarning mualliflari materialni to har bir so'zi amalda ahamiyatga bo'ladigan matn holiga kelmaganicha ayovsiz qisqartiraverishadi; vaziyatni o'rganuvchi kishining vazifasi undagi fakt va xulosalarning hammasini hisobga olishdan iborat. Vaziyatda keltirilgan qanday bo'lmasin biror faktni juda kamdan-kam hollardagina e'iborga olmaslik mumkin.

Vaziyatlarni tahlil qilishda ularning tasvirini bir necha marta, taklif etilgan masalalarni o'ylab ko'rish va muammolarni ajratib olish uchun har safar orada yetarlicha vakt qoldirib, o'kib chiqish kerak. Birinchi marta ukib ko'rganingizda xaqiqatda bor-yo'g'i bir simptom bo'lgan hodisa yoki o'zaro munosabatni Siz muammo, deb o'ylashingiz mumkin. Keyingi safarlar o'qib chikish simptomlar va muammolarni ajratib olishga, odatda, yordam beradi, lekin Siz cho'chimaslingiz kerak. Muammo shu darajada pinxon turgan bo'lishi mumkinki, uni ajratib olishga muvaffaq bo'lish uchun oldin guruhda obdon muxokama o'tkazish kerak bo'lib qoladi. Shu munosabat bilan vaziyatni 3-7 kishidan iborat guruxda tahlil kilib chiqish foyda keltirishi mumkin.

Ishni ishtirok etuvchilar ro'yxatini tuzish - ismlarini yozish va ularni tavsiflashdan boshlang. Ehtiyot bo'ling va ikkinchi darajali ishtirok etuvchilar hamda guruhda tasvirlangan boshqa odamlarni tushirib qoldirmang. Guruhdagi har bir kishi to'g'risida nimalarniki bilsangiz, hammasining ruyxatini tuzing, keyin ishtirok etuvchi qahramonlarning xar birini tasvirlab o'ting (uni qanday deb tasavvur etishingizni). Umumlashtirishdan cho'chimang. Vaziyatda ishtirok etuvchi kishini hayolan ma'lum bir shaxs yoki shaklga o'xshatsak, ularning ish-xarakatlarini tahlil kilib chiqishni o'zimizga osonlashtiramiz. Lekin yetarlicha epchil buling, hamisha boshqa variantlar xam bulishi mumkin-da, axir. Ishtirok etuvchi kishilar nimalar deb xayol qilayotganini payqab olishga harakat qiling, ularning ish- harakatlarini shu nuqtai nazarlardan ko'rib chiqing. Sizning ishtirok etuvchilar to'g'risidagi taxminlarga asoslanib qaror qabul qilishingiz o'rinli bo'lgani uchun shu taxminlar Sizning asoslangan fikrlaringiz bulib qolishiga ayniksa e'tibor bering.

Voqealar xronologiyasini kuzatib boring. Bu bosqichda Siz grafik tuzishingiz yoki voqealar kanday tartibda ro'y bergan bo'lsa, ularning hammasini xuddi shu tartibda birma-bir keltirib o'tishingiz mumkin. Vaziyatlarda voqealar aksari xronologik tartibda ko'rsatilmasligiga tez orada e'tibor berasiz. Mana shunday hollarda voqealarni o'zingiz aniqlab olishingiz va zarur bo'lgan tartibga solib ko'rsatishingizga to'g'ri keladi.

Hodisa ko‘pincha shunday tasvirlanadiki, u birinchi qarashda ahamiyati kamdek bo‘lib ko‘rinadi. Aldanib qolmang. Shunday hodisalar juda muhim va hatto umumiy amaliyot vrachining ishida hal qiluvchi bulishi mumkin.

1. Kaysi asosiy masalalar, ayniqsa hodisalar, faktlar, ish- harakatlar, baholar, pozitsiyalar bo‘yicha qapop kabul qilish kerak bo‘lsa, shularni aniqlab oling.

2. Vaziyatda, odatda, birinchi darajali masalalarga aloqador bir nechta ikkinchi darajali masalalar bo‘ladi. Ikkinchi darajali masalaning bittadan ortiqrog‘ini topadigan bo‘lsangiz, sxema chizib, turli masalalar o‘rtasidagi uzaro bog‘lanishlarni shu sxemada strelkalar bilan ko‘rsatib qo‘yish foydali bulishi mumkin. Sxema tuzib olish vaziyatning bosh masalalarini aniqlab olishda xam Sizga yordam beradi.

3. Endi mulohazali odam mazkur vaziyatni tahlil qilib, aniqlab olishi mumkin bo‘lgan barcha pozitsiyalarning ro‘yxatini tuzing. Vaziyatni tekshiruvchilarining ko‘pchiligi yo‘l qo‘yadigan xato shundan iborat bo‘ladiki, ular oqilona yechim faqat bitta bo‘ladi deb o‘ylashadi. Vaziyatni muhokama qilishda vaqtning bir qismi, odatda, mazkur konkret muammoni hal qilishning mumkin bulgan barcha yo‘llarini topishga sarflanadi - ularning ko‘plari ancha bop keladi; odatda bunday yo‘llarning har xil natija beradigan loaqal ikkitasi bo‘ladi.

4. Qabul qilsa buladigan qarorlarning ba‘zilariin o‘ylab ko‘ring: «Men mana bunday qilsam, falonchi ana unday qilarmikin, agar shunday qiladigan bo‘lsa, bundan nima chiqarkin?». Bu o‘rinda xam o‘z mulohazalaringiz natijalarii yozib oling yoki sxema tuzing.

5. Tavsiyanomalar tuzing. Qabul qilsa bo‘ladigan qarorlarning qaysi birini Siz hammasidan yaxshi deb hisoblaysiz? Nimaga? Mana shu bosqich tahlil qiluvchi kishi uchun odatda eng katta tuzoq bo‘lib turadi. Tavsiyanoma tuzar ekan, odam o‘zining tutgan yo‘li yakkayu-yagona deb juda oson ishonadi. Vaziyatlar bilash ishlashda Siz boshqa imkoniyatlarga urin beradigan bo‘lib qolaverishingiz va boshqalar aytishi mumkin bulgan gaplarga quloq solishga tayyor turishingiz kerak. Vaziyatlarni tahlil kilish - bu, umuman aytganda, bir guruh odamlar birgalikda ishlaydigan bulsa, xuddi shuncha sondagi kishilar yakka-yakka bulib ishlaganidan kura yaxshiroq natijalarga erisha oladigan jarayondir.

Birinchi vaziyat muhokama qilib chiqilganidan keyin Siz o‘zingizni mazkur masalani uncha yaxshi bilmaydigan odamdek his qilishingiz mumkin. «Nega endi men shuni fahmlay qolmadim» - bunday hollarda, odatda, ana shunday savol ko‘ngilga keladi. Shunday savol ustida bosh qotirish o‘rniga guruhning obro‘-nufuzini hurmatlashga, boshqa guruh a‘zolarining fikrlarini rag‘atlantirishda Sizning rolingiz va Sizning fikrlaringizni rag‘batlantirishda ularning roli muhimligini anglashga o‘rganing.

Ish faoliyatimiz davomida kafedramizdagi fanlarni o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarda klinik ish o‘yinlari, vaziyatlar usuli keng qo‘llanilib kelinmoqda va ular o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Xulosa: 1. Ish o‘yinlari, vaziyatlar usulini qo‘llash talabalarda mustaqillik, ishbilarmonlik, tashkilotchilik, kollektivizm, qo‘yilgan muammoni yechishda ijodiy yondashishni tarbiyalaydi.

2. Ish o‘yini deontologiya prinsipiga asoslangan kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi.

3. "Tematik bemorlar" yo'qligi muammosi yo'qoladi, chunki har qanday kasalliklarga chalingan bemorlarning modellari o'yin davomida jonli ravishda taqdim etilishi mumkin, qisqa vaqt ichida bemor bilan shifokorning kasbiy ishining haqiqiy modeli talabani kelajakda uni shifokor sifatida kasbiy faoliyatida, shu jumladan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Krasilnikova V.A./V.A. Krasilnikova. Informatsionnye i kommunikatsionnye texnologii v obrazovanii. Uchebnoe posobie dlya studentov VUZov. M.: «Dom pedagogiki» 2007g.

2. Alyavi A.L., Qodirova Sh.A., Umarova Z.F. Gospital terapiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun o'quv-uslubiy ko'rsatma. Toshkent-2010 y.

3. Korolkova N. K., Medvedeva L. Z., Volkovich T. K., Pristupa V.V., Morxat M. V. Situatsionno-rolivnye igrы kak metod obucheniya klinicheskim dissiplinam // Vestnik VGMU. 2012.g.

4. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2013.

5. Umarova Z.F., Qodirova Sh.A. Jumanazarov S.B. "Ichki kasalliklar" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyaning qo'llanilishi Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent-2021